

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligi direktori o‘rinbosari



Z. Ziyayev

«18» Eyun 2024-y.

INTERAKTIV XIZMATINING REGLAMENTI USLUBIY MATERIALLARDAN FOYDALANISH

1. Xizmatning ta’rifi (pasport)

1.1. Xizmat nomi

Uslubiy materiallardan foydalanish

1.2. Xizmat natijasi

Uslubiy materiallardan foydalanish bo‘yicha axborotlar olish.

1.3. Xizmat ko‘rsatish organlari va blankalarni olish joylari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari, tuman (shahar) statistika bo‘limlari.

Statistika agentligining rasmiy veb-sayti www.stat.uz.

1.4. Huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida” Qonuni

1.4. Xizmatdan foydalanuvchilar

Manfaatdor davlat organlari, xalqaro tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar.

1.5. So‘rov berish muddatlari

So‘rov berish muddati o‘rnatilmagan.

1.6. Bajarilish muddati

Statistika agentligi rasmiy veb-saytiga www.stat.uz murojaat qilinganda – kechayu kunduz.

1.7. Tasdiq berilish muddati

O‘rnatilmagan.

2. Xizmatdan foydalanuvchilarni habardor qilish

2.1. Axborot tarkibi va hajmi

Glossariy;

Umumiy foydalaniladigan uslubiy materiallar;
Statistika agentligining tegishli boshqarmalari tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy materiallar;
Qo‘shma uslubiy nizomlar.

2.2. Keng miqyosda xabardor qilish

Uslubiy materiallardan foydalanish bo‘yicha axborotlar Statistika agentligining rasmiy veb-saytining (www.stat.uz) “Interaktiv xizmatlar” bo‘limining “Uslubiy materiallar” qismida (<https://lib.stat.uz/uz/>) joylashgan.

2.3. So‘rov bo‘yicha xabardor qilish

Shaxsan: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat bo‘yicha har qanday savol yuzasidan og‘zaki konsultatsiya (10 daqiqadan ortiq emas).

Telefon orqali: 9-00 dan 18-00 gacha xizmatdan foydalanish bo‘yicha har qanday katta hajmdagi aniq axborot berilishini talab qilmaydigan savol yuzasidan og‘zaki maslahat (5 daqiqadan ortiq emas).

Faks orqali: 9-00 dan 18-00 gacha so‘rov bo‘yicha yozma hujjatlarni (3 varaqdan ortiq emas) qabul qilish va uzatish.

Elektron pochta orqali: har qanday yozma so‘rovlarni keng tarqalgan matn formatlarida (oddiy matn, DOC, RTF, PDF formatlarida biriktirilgan fayl) yoki kelishilgan boshqa formatlarda kechayu kunduz qabul qilish, soat 9-00 dan 18-00 gacha odiy matn formatida, DOC, RTF, PDF formatidagi biriktirilgan fayl ko‘rinishida yoki kelishilgan boshqa formatlarda yozma hujjatlarni uzatish.

Statistika agentligi rasmiy veb-saytiga shaxsiy murojaat – kechayu kunduz.

2.4. Xizmat ko‘rsatish joyi haqida xabardor qilish

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo-Ulug‘bek tumani, 100170, Mustaqillik shoh ko‘chasi 63.

2.5. Foydalaniladigan hujjatlar blanklari (shakllar)

O‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan jadval namunalari.

3. Xizmat ko‘rsatish

3.1. Ish vaqti

Statistika agentligiga murojaat – kecha-kunduz;
Ish tartibi: ish kunlari 9-00 dan 18-00 gacha.

3.2. Kutish shartlari

O‘rnatilmagan.

4. Xizmat ko‘rsatish tartibi

4.1. Shart bo‘lgan hujjatlar

Talab etilmaydi.

4.2. Xizmat haqi

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

4.3. Interaktiv xizmatining ko'rsatish bosqichlari

Uslubiy materiallardan to'g'risida axborot olish uchun, www.stat.uz saytiga kirish lozim. Asosiy menyuning "Interaktiv xizmatlar" bo'limidan "Uslubiy materiallar" qismini (<https://lib.stat.uz/uz/>) tanlash kerak.

4.4. Interaktiv xizmatini ko'rsatishda idoraviy ichki tartiblar

1. Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi xalqaro standartlarga muvofiq uslubiy materiallarni ishlab chiqadi va statistika amaliyotiga joriy etadi.
2. Tasdiqlangan uslubiy materiallar Statistika agentligining lib.stat.uz veb-saytida joylashtiriladi.

4.5. Rad etish asosi

O'rnatilmagan.

5. Sifat ta'minoti

5.1. Sifat parametrlari

Xizmat ko'rsatish sifati ko'rsatiladigan xizmatlar uchun o'rnatilgan tartibga to'liq javob beradi.

5.2. Xizmat sifati ustidan shikoyat qilish tartibi

Statistika organlariga belgilangan tartibda yozma murojaat qilish yoki Statistika agentligining rasmiy veb-saytidagi qarshi aloqa shakli orqali shikoyat bildirish mumkin.

5.3. Uslubiy materiallardan foydalanish bo'yicha axborotlar olish interaktiv xizmatni ko'rsatish sxemasi

Bosqichlar	Sub'ektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	Statistika agentligining rasmiy veb-saytiga (www.stat.uz) kiradi.	O'z xohishiga ko'ra
2-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	"Interaktiv xizmatlar" bo'limining "Uslubiy materiallar" qismini tanlaydi.	O'z xohishiga ko'ra
3-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	"e-stat Library" uslubiy materiallar elektron kutubxonasidan (https://lib.stat.uz/uz/) tegishli uslubiy material tanlanib yuklanadi	O'z xohishiga ko'ra
4-bosqich	Statistika agentligi	Tanlangan uslubiy material "pdf" fayl ko'rinishida murojaatchining qurilmasiga yuklaydi.	Avtomatik tarzda



USLUBIY MATERIALLAR



YANGI USLUBIY QO'LLANMALAR



BEKOR QILINGAN MATERIALLAR



KONTAKTLAR

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**
"e-stat Library" uslubiy materiallar elektron kutubxonasi

KUTUBXONA HAQIDA



Uslubiy materiallarning elektron kutubxonasi, uslubiy nizomlar va yo'riqnomalarning tizimlashtirilgan ro'yxati, statistik kuzatuvlar o'tkazish va tashkillashtirish masalalarini reglamentlashni o'z ichiga oladi.

Umumiy materiallar

Amaldagi materiallar

Bekor qilingan materiallar